

## O'SPIRINLIK DAVRIDA YUZAGA KELADIGAN NIZOLARNI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

**Maripova Asalxon Botiraliyevna**

“University of Business and Science”

Universiteti Pedagogika-psixologiya mutaxassisligi

### ANNOTATSIYA

Bugungi kunda barchamizning bosh maqsadimiz kelajagimiz poydevori bo‘lgan yoshlarni har tomonlama yetuk, barkamol ruhda tarbiyalashni oliv maqsadimizga. Ushbu maqolada yosh avlodni, jumladan o’spirin yoshlarni oldilariga qo‘ygan maqsadlariga turli holatlarda to‘sinq bo‘lishi mumkin bo‘lgan nizolar-konfliktlar - ularni oldini olish uchun qaysi usul va tuzatishlardan foydalanish haqida so‘z yuritilgan hamda qaysidir ma’noda maqsadga erishish ko‘zda tutilgan.

**Kalit so‘zlar:** o’spirinlik, konflikt, o‘quvchilar, ijtimoiy muhit, konfiliktiv madaniyat.

### PSYHOLOGICAL RESOLUTION MECHANISMS OF CONFLICT RESOLUTION THAT ARISE IN ADOLESCENCE PREIOD TABLE OF CONTENTS

**Maripova Asal Botiraliyevna**

“University of Business and Science” University  
Pedagogy and psychology

### ABSTRACT

Today, it is no exaggeration to say that our main goal is to educate young people, who are the foundation of our future, in all-round mature and well-rounded spirit. This article talks about the methods and corrections to be used to prevent disputes and conflicts, which can be an obstacle to the goals set for the young generation, including teenagers, in various situations, and some it is intended to achieve a certain goal.

**Keywords:** adolescence, conflict, students, social environment, conflict culture.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗРЕЩЕНИЕ КОНФИЛИКТОВ ВОЗНИКАЮЩИХ В ПОДРОСТКОВОМ ПРИОДЕ ОГЛАВЛЕНИЕ

**Марипова Асал Ботиралиевна**

Университет Университет Бизнеса и Науки  
Педагогика и психология

## АННОТАЦИЯ

Сегодня не будет преувеличением сказать, что нашей главной целью является воспитание молодых людей, которые являются основой нашего будущего, во всестороннем зрелом и всестороннем духе. В данной статье говорится о методах и коррекции, которые могут стать препятствием на пути к достижению целей, поставленным, в том числе подростками в различных ситуациях а некоторые призваны достичь определенной цели.

**Ключевые слова:** подростковый, возраст, конфликт, учащиеся, социальная среда, конфликтная культура.

## KIRISH

Hozirgi kunda jahondagi jamiki mamlakatlar asosiy e'tiborini yoshlarning holati, ular yashayotgan jamiyatning yanada rivojlanishi uchun muhim ekanligiga qaratmoqda. Butun dunyo bo'yicha barcha mamlakatlarda yoshlar o'rtasida bir-birini hurmat qilishi, tushinishi uchun har yili turli xil mavzularda o'tkazilayotgan tadbirlar, konfirensiyalar orqali yoshlar masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. O'spirinlardagi zo'riqishlarni bartaraf etish, yoshlarni jamiyatdagi mavqeyiga to'siq bo'luvchi omillarni oldini olish muhim muammolardan biriga aylanmoqda.

Asosiy qism. Respublikamizda yoshlarning ma'naviy hamda jismoniy rivojlanishi masalasida va o'spirinlik davriga oid islohotlar samaradorligini yanada oshirishning zarur asoslari yaratilmoqda. Ushbu islohotlar ijrosini ta'minlashda o'spirinlar faoliyatidagi nizolarni bartaraf etishning mexanizmlarini ishlab chiqish, ularning ma'naviy-ahloqiy va intellektual rivojlanishi, mustaqil fiktlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sadoqatli qilib tarbiyalashda emotsional barqaror va o'zini nazorat qilish imkonini beruvchi xususiyatlarni shakllantirish, o'spirinlik davrida yuz berishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarni oldini olish uchun samarali ishlar ham amaliy ham nazariy yechimlarini topishga yo'naltirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi Pf-60-sonli, 472-sonli "Psixologiya sohasida Kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbazarlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda boshqa me'yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamlı strategik chora-tadbirlarni amalga oshirish bizning eng oliy qadamlarimizdan biri. [O'spirinlik davrida yuz beradigan nizoli vaziyatlarningoldini olish uchun esa biz "nizo-konflikt" haqida bilishimiz maqsadga muvofiq bo'lar edi [2].

Konflikt har bir inson hayotiga aloqador bo'lgan o'ziga xos jarayon bo'lib, hech bir inson o'zini komil ishonch bilan konflikt vaziyatlardan muhofaza qilinganman deb ayta olmaydi. Konfliktlar inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. So'nggi vaqtarda zamonaviy jamiyatlardagi insonga bo'lgan turli ilmiy-texnik, ma'naviy,

iqtisodiy ta'sirlarning haddan ziyod ortib borishi, zamonaviy jamiyatlarda yashash tarzining murakkablik tomon ortib borayotganligi odamlar to'qnash kelishi mumkin bo'lgan turli konflikt vaziyatlarni ham oshiradi. Shu bois bugungi kunda o'spirinlik davrida yuzaga keladigan psixologik nizolarni bartaraf etishning psixologik mexanizmlarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi[3].

O'spirinlik davrida yuzaga keladigan nizolarni oldini olishning psixologik mexanizmlarini o'rganish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilgan. Xususan, xorijlik psixolog olimlardan Grace Contrino Abrams, Fran Schmidt va Alice Friedmanlar tomonidan konfliktlogiya sohasining nazariy asoslari, uning milliy xususiyatlari, ijtimoiy o'ziga xosliklari, konfliktlarning jamiyat hayoti bilan aloqadorligi, shaxslararo konfliktlar, konfliktlarning huquqiy aspektlari, mehnat jamoasidagi konfliktlar keng tahlil etilgan[4].

MDH davlatlari olimlari Antsupov A.Ya., Stepanov Ye.I, Banikina S.V Samarin A.N. va boshqalar tomonidan konfliktologik kayfiyat va xususiyatlarni jamiyatdagi inqirozlarning kelib chiqishi va ijtimoiy to'qnashuvlarning oldini olishdagi ahamiyatiga to'xtalib o'tilgan.

O'zbekistonlik psixolog olimlardan To'ychiyeva G, Karimova V.M, Davletshin M.G, To'laganova G.Q, G'oziyev E.E va boshqalar tomonidan yoshlarda konfliktlar va aggressiya xulq shakllanishining psixologik mexanizmlari, tarbiyasi qiyin o'smirlarning qiziqishlari, o'smirlarning ontogenetik taraqqiyotidagi psixologik xususiyatlarini tadqiq etilga[5].

Shu bilan birgalikda

- O'spirinlik davrida yuzaga keladigan nizolarni psixologik mexanizmlarini aniqlash.
- O'spirinlik davrida namoyon bo'ladigan nizoli vaziyatlarning keltirib chiqaruvchi omillarini eksperimental yo'l bilan tadqiq etish.
- O'spirinlik davrida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni oldini olishning psixologik mexanizmlariga doir ilmiy natijalarni tahlil qilish.
- O'spirinlardagi nizoli vaziyatlarning namoyon bo'lishining yosh va jins xususiyatlariga ko'ra xususiyatlarini yoritish.

## XULOSA

Psixologiya va pedagogika yo'naliishlarida o'spirinlik davrida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarning diagnostikasi va psixokorreksiyasi tizimining takomillashtirilganligi, o'rganilgan va tadqiq etilgan muammoga oid ilmiy tushuncha tasavvurlarni kengaytirilganligi, shuningdek, o'spirinlik davrida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarning sabablarini ta'lim va oila muhiti, faoliyatning deorganizatsiyalashuvi va demobilizatsiya jarayoniga muvofiq ochib berilganligi, o'spirinlik davridagi nizoli vaziyatlar diagnostikasi, uning psixokorreksiyasi va

psixoprofilaktikasining xususiyatlariga doir ilmiy xulosalardan pedagogika, psixologiya, yosh psixologiyasi va rivojlanish psixologiyasi yo‘nalishlaridagi tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. I.A.Karimov.Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o‘z kuch-qudratimizga xalqimizning hamjihatligi yo‘lida.2008-yil
2. G‘oziyev E.G.Umumiyl psixologiya.Toshkent.2002.1-2-kitob
3. Maxsudov M.a.Muloqot psixologiyasi.toshkent .Turon-iqbol.2006.115-b
4. O.Sodiqova,s.Madaliyeva.Psixologiya.Toshkent-2010.248-b
5. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi